Meta-predmet kompetensiyalarining psixologik asoslarini tuşunişda bilimlarni köçiriş (transfer) va metakognitsiya nazariyalari muhim ahamiyatga ega. D. Perkins va G. Salomon bilimlarning yangi vaziyatga köçişini "yaqin" va "uzoq" transferga ajratib, uzoq transfer öz-özidan yuz bermasligini, u maxsus taşkil etilgan öqitişni talab qilişini körsatgan [13]. Ular taklif etgan "quçoqlaş" (hugging) va "köprik quriş" (bridging) strategiyalari integratsiyalaşgan topşiriqlarni loyihalaşda bevosita qöllanişi mumkin.

J. Flavell esa metakognitsiyani şaxsning öz biliş jarayonlarini anglaşi va nazorat qilişi sifatida ta'riflagan [14]. Uşbu yondaşuv boşlanğiç sinflarda refleksiv faoliyatni taşkil etişning nazariy asosi bölib xizmat qiladi.

Sönggi yillardagi xalqaro hujjatlarda ham mazkur muammoga katta e'tibor qaratilmoqda. OECD tomonidan işlab çiqilgan "Learning Compass 2030" konsepsiyasida bilim, könikma, munosabat va qadriyatlarning özaro uyğunligi kelajak ta'limining asosi sifatida belgilangan [6].

UNESCO hisobotlarida ta'limni hamkorlik va birdamlik tamoyillari asosida qayta taşkil etiş zarurligi ilgari suriladi [7], ta'limda texnologiyalardan foydalaniş esa pedagogik maqsadlarga böysundirilgandagina samara berişi qayd etiladi [8].

AQŞ Milliy tadqiqot kengaşi bilimlarni yangi vaziyatlarga köçira oliş qobiliyatini XXI asr könikmalarining markaziy tarkibiy qismi sifatida köradi [9], Yevropa Ittifoqi Kengaşining tavsiyanomasida esa şaxsiy, ijtimoiy va "örganişni örganiş" kompetensiyasi umrbod ta'limning tayanç kompetensiyalari qatoriga kiritilgan [10].

Mamlakatimizda ham ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondaşuv asosida yangilaş davlat siyosati darajasida belgilangan. Özbekiston Respublikasining "Ta'lim töğrisida"gi Qonunida ta'limning asosiy tamoyillari qatorida ta'lim jarayonining uzluksizligi va izçilligi hamda ta'lim sifatini ta'minlaş masalalari alohida qayd etilgan [15].

Umumiy örta ta'limning davlat ta'lim standartlarida esa öquvçilarda tayanç va fanga oid kompetensiyalarni şakllantiriş ta'lim natijalariga qöyiladigan asosiy talab sifatida belgilangan [16]. Xususan, kommunikativ, axborot bilan işlaş, özini özi rivojlantiriş hamda ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalari mazmunan meta-predmet natijalariga yaqin bölib, ular biror fan doirasida emas, balki barça öquv fanlari orqali şakllantirilişi nazarda tutiladi.

Tahlil qilingan manbalar integratsiya va meta-predmet natijalari masalasi turli jihatlardan örganilganini körsatadi. Biroq integratsiyalaşgan ta'lim mazmuni bilan meta-predmet natijalarini baholaş örtasidagi boğliqlik, ayniqsa boşlanğiç ta'lim şaroitida, yetarliça yoritilmagan. Mazkur maqola ana şu boşliqni töldirişga qaratilgan bölib, unda integratsiyalaşgan öqitiş va meta-predmet natijalarini baholaş yagona pedagogik tizim sifatida körib çiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kompetensiyaviy va tizimli-faoliyatli yondaşuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Muammoni örganişda nazariy tahlil, qiyosiy taqqoslaş, umumlaştiriş va pedagogik modellaştiriş metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil yordamida xorijiy olimlarning integratsiya va meta-predmet natijalariga oid qaraşlari hamda xalqaro taşkilotlarning ta'limga oid hujjatlari örganildi.

Qiyosiy taqqoslaş metodi orqali turli mualliflar tomonidan ilgari surilgan integratsiya ğoyalari özaro soliştirilib, ularning boşlanğiç ta'lim şaroitiga mos jihatlari ajratib olindi. Umumlaştiriş va pedagogik modellaştiriş metodlari asosida esa meta-predmet kompetensiyalarining tarkibiy qismlari, ularni rivojlantirişning metodik yönalişlari va baholaş mezonlari yagona tizimga keltirildi. Tadqiqot natijalari boşlanğiç sinf darslariga oid amaliy misollar bilan izohlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar şuni körsatadiki, integratsiyalaşgan ta'limda öquv materiali bir fan chegarasi bilan çeklanib qolmaydi. Masalan, tabiat hodisalarini örganişda öquvçilar tabiatşunoslikka oid bilimlar bilan bir qatorda matematik hisob-kitob, ona tili vositasida fikrni ifodalaş va tasviriy faoliyat orqali kuzatuv natijalarini aks ettiriş imkoniyatiga ega böladi. Natijada bitta mavzu turli fanlar nuqtayi nazaridan örganilib, bilimlarning mazmuniy yaxlitligi ta'minlanadi.

Meta-predmet kompetensiyalarining mazmuni ham aynan şu yaxlitlik bilan belgilanadi. Ularni şakllantiriş jarayonida öquvçining öquv vazifasini anglab, maqsad qöya olişi, zarur axborotni izlab topişi, tanlaşi va qayta işlaşi, hodisa va jarayonlarni taqqoslab, tahlil qilib umumlaştirişi, turli fanlarga oid bilimlarni özaro boğlaşi, muammoli vaziyatda mustaqil yeçim topişi, öz faoliyati natijasini baholaşi hamda fikrini asoslab, boşqalar bilan hamkorlik qilişi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu könikmalar biror fan mazmuni bilan chegaralanmaydi, balki öquvçining turli fanlardan olgan bilimlarini yagona faoliyat tizimida qöllaşiga xizmat qiladi.

Boşlanğiç sinf öquvçilarining biliş faoliyatiga xos xususiyatlar ta'lim mazmunini integratsiyalaşgan holda taşkil etiş uçun keng imkoniyat yaratadi. Bu yoşdagi bolalar atrof-muhitni kuzatiş, narsalarni taqqoslaş, hodisalar örtasidagi boğliqlikni aniql aş va amaliy harakatlar orqali bilim olişga moyil böladi. Masalan, "Suv va uning xususiyatlari" mavzusini örganişda tabiatşunoslik maşğulotida suvning xossalari va tabiatdagi aylanişi, matematika darsida suv miqdorini ölçaş va litr tuşunçasi, ona tili darsida suvni asraşga oid matn tahlili, tasviriy san'at darsida esa suvni tejaşga bağişlangan plakat yaratiş özaro uyğunlaştiriladi.

Tahlil natijasida integratsiyaning tört asosiy pedagogik imkoniyati aniqlandi.

Birinçidan, u turli fanlarda örganiladigan tuşunçalar örtasidagi boğliqlikni oçib beriş orqali voqelik haqida yaxlit tasavvur şakllantiradi.

Ikkinçidan, nazariy ma'lumotlarni kundalik hayotiy vaziyatlarda qöllaşga qaratilgan topşiriqlar bilimni amaliyot bilan boğlaydi.

Uçinçidan, fanlararo muammolarni hal etiş jarayonida öquvçi turli manbalardan foydalanib, fikrlarni soliş-tiradi va mustaqil xulosa çiqaradi.

Törtinçidan, bir mavzu doirasida bir neça fan imkoniyatlarini birlaştiriş yangi ğoya va yeçimlar taklif etişga şaroit yaratadi.

Integratsiyaning boşlanğiç ta'limdagi samaradorligi uning qaysi darajada amalga oşirilişiga ham boğliq. Adabiyotlar tahlili va umumlaştiriş asosida boşlanğiç sinflar uçun integratsiyaning üç darajasi ajratildi (1-jadval) [11; 12]. Bunda har bir keyingi daraja oldingisiga tayanadi hamda öquvçidan yuqoriroq mustaqillik va umumlaştiriş könikmasini talab qiladi.

1-jadval: **Boşlanğiç ta'limda integratsiya darajalari**

Daraja	Mohiyati	Boşlanğiç sinfdagi namunasi	Rivojlanadigan könikmalar
Multifanli	Bir mavzu bir neça fan darslarida alohida, lekin özaro kelişilgan holda örganiladi	"Kuz fasli" mavzusi tabiatşunoslik, ona tili va tasviriy san'at darslarida bir hafta davomida yoritiladi	Taqqoslaş, bilimlarni boğlaş
Fanlararo	Bir neça fanga xos tuşunça va könikmalar umumiy muammo atrofida birlaştiriladi	"Sinf xonamizdagi ös imliklar" mavzusida ölçaş, kuzatuv kundaligini yuritiş va xulosa matnini yoz iş	Axborot bilan işlaş, tahlil, umumlaştiriş
Transfanli	Öquv faoliyati hayotiy muammo asosida quriladi, fanlar çegarasi deyarli sezilmaydi	"Maktabimizda suvni qanday tejaş mumkin?" loyihasi	Muammoni hal etiş, hamkorlik, refleksiya

Jadvaldan körinib turibdiki, multifanli daraja birinçi sinf öquvçilari uçun qulay bölib, ularni fanlar örtasidagi boğlanişni körişga örg atadi. Fanlararo daraja ikkinçi va üçünçi sinflarda kengroq qöllanişi mumkin, çunki bu bosqiçda öquvçilarning öqiş, yoz iş va hisoblaş könikmalari ança mustahkamlangan böladi. Transfanli daraja esa köproq törtinçi sinfda, loyiha va tadqiqot faoliyati şaklida taşkil etilgani maqsadga muvofiq. Şu tariqa integ-ratsiya darajalarini öquvçilarning yoş imkoniyatlariga mos ravişda izçil murakkablaştirib boriş meta-predmet kompetensiyalarining bosqiçma-bosqiç rivojlanişini ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida meta-predmet kompetensiyalarini rivojlantirişning tört metodik yönaliği asoslandi.

Birinçi yönaliş - **muammoli ta'lim metodidan foydalaniş.** Bu metod öquvçini tayyor bilimlarni qabul qilişdan faol izlanişga yönaltiradi. Masalan, "Nima uçun daraxtlar kuzda barglarini tökadi?" degan savol öquvçi-larda kuzatiş, taqqoslaş, sabab va oqibatni aniql aş kabi fikrlaş jarayonlarini faollaştiradi hamda ularga tabiat-şunoslik bilimlarini oğzaki va yozma nutqda ifodalaş imkonini beradi.

Ikkinçi yönaliş - **loyiha asosida öqitiş.** "Bizning maktabimiz – toza va obod maskan" mavzusidagi loyihada öquvçilar maktab hududini kuzatadi, mavjud muammolarni aniqlaydi, ma'lumotlarni yiğib tartibga soladi, vazifa-larni özaro taqsimlaydi va muammolarni bartaraf etiş böyiça takliflarini taqdimot şaklida himoya qiladi. Şu tariqa loyiha metodi meta-predmet kompetensiyalarining bir neçta tarkibiy qismini bir vaqtning özida rivojlantiradi.

Üçinçi yönaliş - **fanlararo integratsiyalaşgan topşiriqlar.** "Mening kun tartibim" mavzusida öquvçilar vaqtni aniql aş va hisoblaş orqali matematik bilimlarini, kun tartibi haqida matn tuziş orqali nutqiy könikmala-rini, soğlom turmuş tarziga oid qoidalarni izohlaş orqali hayotiy bilimlarini namoyon etadi. Bunday topşiriqlar öquvçidan alohida ma'lumotlarni yodlab olişni emas, balki turli bilimlardan yaxlit foydalanişni talab qiladi.

Törtinçi yönaliş - **refleksiv yondaşuv.** Boşlanğiç sinflarda refleksiyani "Bugun qanday yangi bilim oldim?", "Qaysi topşiriqda qiynaldim?", "Muammoni hal etişda qanday usuldan foydalandim?", "Keyingi safar nimani boşqaça bajaraman?" kabi sodda savollar orqali taşkil etiş mumkin. Bunday savollar öquvçida öz öquv faoliyatiga ongli munosabatni şakllantiradi, öqituvçiga esa öquvçilarning qiyinçiliklari va rivojlaniş dinamikasini kuzatiş imkonini beradi.

Tahlillar meta-predmet kompetensiyalarini rivojlantirişda öqituvçining roli hal qiluvçi ekanini körsatdi. Öqituvçi dars maqsadini belgilaşda fan bilimlari bilan bir qatorda meta-predmet natijalarini ham nazarda tutişi, turli fanlarga oid tuşunçalarni yagona mavzu atrofida birlaştirişi, öquvçilarni kuzatiş, izlaniş, munozara va amaliy topşiriqlarga jalb etişi, guruh va juftlikdagi işlar orqali hamkorlik muhitini yaratişi hamda öquvçining faqat yakuniy javobini emas, balki fikrlaş jarayonini ham baholaşi lozim. Demak, bu jarayon dars metodlarini almaştiriş bilan çeklanmay, ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari va baholaş mezonlarining özaro uyğunligini talab etadi.

Integratsiyalaşgan darsni loyihalaşda G. Uiggins va J. Maktayning "teskari loyihalaş" ğoyasidan foydalaniş samarali hisoblanadi. Uşbu yondaşuvga köra, öqituvçi avval öquvçilar erişişi lozim bölgan natijalarni belgilaydi, söngra bu natijalarga erişilganini tasdiqlovçi dalillarni, ya'ni baholaş topşiriqlarini aniqlaydi va faqat şundan keyin öquv faoliyatini rejalaştiradi [17].

Boşlanğiç ta'lim şaroitida bu şuni anglatadiki, dars rejasida fan böyiça natijalar bilan birga "öquvçi ikki manbadagi ma'lumotni taqqoslay oladi" yoki "öquvçi guruh işidagi öz hissasini baholay oladi" kabi meta-predmet natijalari ham aniq ifodalanişi kerak. Natijalar oldindan aniq belgilansa, integratsiya tasodifiy boğlanişlar yiğindisiga aylanib qolmaydi, balki aniq pedagogik maqsadga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida integratsiyalaşgan darsning beş bosqiçli tuzilmasi işlab çiqildi.

Birinçi, motivatsion bosqiçda öquvçilarning hayotiy tajribasiga tayanuvçi savol, rasm yoki qisqa hikoya orqali mavzuga qiziqiş uyğotiladi.

Ikkinçi bosqiçda muammo qöyiladi va öquvçilar öqituvçi yordamida dars maqsadini özlari şakllantirişga harakat qiladi.

Üçinçi, izlaniş bosqiçida öquvçilar juftlik yoki kiçik guruhlarda turli fanlarga oid ma'lumotlarni töplaydi, kuzatadi va taqqoslaydi.

Törtinçi bosqiçda olingan bilimlar amaliy topşiriq, ijodiy iş yoki mini-loyiha şaklida qöllanadi.

Beşinçi, refleksiv bosqiçda esa öquvçilar bajargan işlarini tahlil qiladi, qiyinçiliklarni aniqlaydi va öz yutuqlarini baholaydi.

Uşbu tuzilmani "Kuz fasli" mavzusidagi integratsiyalaşgan dars misolida körib çiqiş mumkin. Dars boşida öqituvçi maktab hovlisidan yiğilgan turli barglarni körsatib, "Nima uçun barglar turli rangda?" degan savolni örtaga taşlaydi. Izlaniş bosqiçida bir guruh barglarni şakli va rangiga köra tasniflaydi, ikkinçi guruh ularni sanab, natijani oddiy diagramma körinişida ifodalaydi, üçünçi guruh esa kuz haqidagi şe'rdan fasl belgilarini topadi. Amaliy bosqiçda guruhlar natijalarini umumlaştirib, "Kuz taqvimi" devoriy gazetasini tayyorlaydi. Yakunda har bir öquvçi "Bugun men nimani bilib oldim va bu bilim menga qayerda kerak böladi?" degan savolga javob beradi. Bunday dars davomida öquvçilar tabiatşunoslik, matematika, ona tili va tasviriy san'at fanlariga oid bilimlarni yagona faoliyatda qöllaydi, ayni paytda axborot bilan işlaş, hamkorlik va refleksiya könikmalarini ham maşq qiladi.

Integratsiyalaşgan darslarda raqamli ta'lim resurslaridan foydalaniş ham meta-predmet kompetensiyalarini rivojlantirişga qöşimça imkoniyat yaratadi. Elektron taqdimotlar, interaktiv maşqlar, qisqa ta'limiy videolar va oddiy diagramma tuziş dasturlari öquvçilarning axborotni izlaş, tanlaş va turli şakllarda ifodalaş könikmalarini mustahkamlaydi. Biroq texnologiya öz-özidan ta'lim sifatini oşirmaydi: u aniq pedagogik maqsadga böysundirilgan va öquvçilarning yoş xususiyatlariga mos tanlangan taqdirdagina foyda beradi [8]. Şu sababli boşlanğiç sinflarda raqamli vositalar asosiy faoliyatning örnini bosmasligi, balki kuzatuv, amaliy harakat va jonli muloqotni töldiruvçi vosita sifatida qöllanişi lozim.

Integratsiyalaşgan ta'limda öquvçilarning individual farqlarini hisobga oliş ham muhim ahamiyatga ega. Bir sinfdagi bolalarning öqiş sur'ati, diqqatni jamlaş qobiliyati va avvalgi tajribasi turliça bölgani uçun bir xil topşiriq hamma uçun bir xil darajada samara bermaydi. L. S. Vygotskiyning yaqin rivojlaniş zonasi haqidagi ğoyasiga tayangan holda, öqituvçi topşiriqlarni murakkablik darajasiga köra tabaqalaştirişi va har bir öquvçiga mustaqil bajara olmaydigan, lekin yordam bilan uddalay oladigan vazifalarni taklif etişi maqsadga muvofiq [2]. Masalan, "Kuz fasli" darsida ayrim öquvçilarga barglarni tayyor jadvalga joylaştiriş, boşqalariga esa tasniflaş belgisini özlari tanlab, natijani izohlaş topşiriği berilişi mumkin. Yordamçi savollar, namuna va tayanç sxemalar öquvçi mustaqillaşib borgani sari asta-sekin kamaytiriladi.

Tadqiqot natijasida meta-predmet kompetensiyalarini baholaş uçun mezonlar tizimi işlab çiqildi (2-jadval).

2-jadval: **Meta-predmet kompetensiyalarini baholaş mezonlari**

№	Baholaş mezoni	Namoyon böladigan faoliyat
1	**Axborot bilan işlaş**	Ma'lumotni izlaydi, tanlaydi va tartibga soladi
2	**Mantiqiy fikrlaş**	Taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlaştiradi
3	**Muammoni hal etiş**	Muammoni aniqlaydi va yeçim taklif qiladi
4	**Kommunikativ faoliyat**	Fikrini ifodalaydi va boşqalar bilan muloqot qiladi
5	**Refleksiv faoliyat**	Öz işini tahlil qiladi va baholaydi
6	**Amaliy qöllaş**	Egallagan bilimlarini yangi vaziyatda işl atadi

Mazkur mezonlar öquvçilarning rivojlaniş darajasini kuzatiş, individual qiyinçiliklarini aniql aş va keyingi pedagogik faoliyatni rejalaştirişga imkon beradi. Baholaşda faqat yakuniy natijaga tayaniş yetarli emas: öquvçining topşiriqni bajariş jarayonida qanday fikrlagani, qaysi usullardan foydalangani, mustaqil qaror qabul qila olgani va öz xatosini anglagani ham e'tiborga olinişi zarur.

Mezonlarni amaliyotda qöllaş qulay bölişi uçun har bir mezon böyiça meta-predmet kompetensiyasining üç darajasini farqlaş taklif etiladi. Boşlanğiç darajada öquvçi topşiriqni öqituvçi yordamida, namuna asosida bajaradi, axborotni tayyor manbadan oladi va öz faoliyatini baholaşda qiynaladi. Örta darajada öquvçi taniş vaziyatlarda topşiriqni mustaqil bajaradi, bir neça manbadagi ma'lumotlarni soliştiradi va xatolarini öqituvçi körsatmasi bilan tuzatadi. Yuqori darajada esa öquvçi notaniş vaziyatda ham turli fanlardan olgan bilimlarini birlaştirib yeçim topadi, fikrini dalillar bilan asoslaydi va öz faoliyatini mustaqil tahlil qila oladi.

Darajalarni aniql aşda kuzatuv varaqalari, öquvçi portfoliosi, öz-özini va özaro baholaş varaqalari kabi vositalardan foydalaniş maqsadga muvofiq. Masalan, refleksiv faoliyatni baholaş uçun öquvçilar har bir integratsiyalaşgan darsdan söng "Men bilaman", "Men qila olaman", "Menga yordam kerak" degan üç ustundan iborat varaqani töldiradi. Bunday vositalar öqituvçiga sinfdagi umumiy holatni köriş bilan birga, har bir öquvçining rivojlaniş yölini individual kuzatiş imkonini beradi. Muhimi, baholaş natijalari öquvçilarni bir-biri bilan taqqoslaş uçun emas, balki keyingi öquv faoliyatini töğri rejalaştiriş uçun qöllanişi kerak.

Meta-predmet natijalarini baholaşda qöllaniladigan asosiy vositalar va ularning vazifalari umumlaştirilgan holda 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval: **Meta-predmet natijalarini baholaş vositalari**

Baholaş vositasi	Qöllaniş usuli	Baholanadigan könikmalar
Kuzatuv varaqasi	Öqituvçi guruh işi davomida öquvçi faoliyatini oldindan belgilangan belgilar asosida qayd etadi	Hamkorlik, muloqot, mustaqillik
Öquvçi portfoliosi	Öquvçining ijodiy işlari, loyihalari va topşiriqlari çorak davomida yiğib boriladi	Rivojlaniş dinamikasi, amaliy qöllaş
Öz-özini baholaş varaqasi	Öquvçi dars yakunida "Men bilaman", "Men qila olaman", "Menga yordam kerak" ustunlarini töldiradi	Refleksiya, öz faoliyatini anglaş
Özaro baholaş	Guruhlar bir-birining işini sodda mezonlar asosida baholab, fikr bildiradi	Tahlil, fikrni asoslaş
"Çiqiş çiptasi"	Dars oxirida öquvçi bitta savolga qisqa yozma javob beradi	Umumlaştiriş, xulosa çiqariş

Uşbu vositalar formativ, ya'ni şakllantiruvçi baholaş ğoyasiga asoslanadi. P. Blek va D. Viliamning tadqiqotida körsatilişiça, öquvçiga öz vaqtida berilgan aniq va tuşunarli fikr-mulohaza, şuningdek, öz-özini baholaşga örgatiş öquv natijalarining sezilarli yaxşilanişiga olib keladi [18]. Boşlanğiç sinflarda bu, ayniqsa, muhim, çunki bola öz xatosini jazo sifatida emas, balki örganiş imkoniyati sifatida qabul qilişga örganadi. Şu tariqa formativ baholaş meta-predmet kompetensiyalarining refleksiv tarkibiy qismini rivojlantiruvçi mustaqil pedagogik vositaga aylanadi.

Şu bilan birga, integratsiyalaşgan ta'limni taşkil etişda ayrim metodik qiyinçiliklar ham uçraydi. Jumladan, fanlar mazmuni örtasidagi tabiiy aloqadorlikni aniql aş, dars vaqtini oqilona taqsimlaş, öquvçilarning yoş va individual xususiyatlarini hisobga oliş hamda baholaş mezonlarini işlab çiqiş öqituvçidan puxta tayyorgarlikni talab qiladi. Şuning uçun integratsiya fanlarni sun'iy ravişda birlaştiriş şaklida emas, balki har bir fan mazmunining içki mantiqini saqlagan holda, ular örtasidagi mazmuniy va faoliyatga oid aloqalarni aniql aş asosida amalga oşirilişi kerak.

Uşbu qiyinçiliklarni bartaraf etişda öqituvçilarning özaro hamkorligi alohida örin tutadi. Boşlanğiç sinf öqituvçisi köpçilik fanlarni özi öqitsa-da, jismoniy tarbiya, musiqa, çet tili yoki informatika darslari boşqa mutaxassislar tomonidan olib boriladi. Şu bois integratsiyalaşgan mavzularni metodik birlaşma doirasida birgalikda rejalaştiriş, dars işl anmalari va baholaş vositalarini özaro almaşiş, bir-birining darslarini kuzatib, tajriba örto qlaşiş maqsadga muvofiq. S. M. Dreyk va R. K. Bernsning ta'kidlaşiça, integratsiyalaşgan öquv dasturini muvaffaqiyatli joriy etiş köp jihatdan öqituvçilar jamoasining umumiy maqsad atrofida birlaşişiga boğliq [12]. Bunday hamkorlik öqituvçilarning kasbiy rivojlanişiga ham xizmat qilib, maktabda integratsiyalaşgan ta'limning barqaror tizimini şakllantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ötkazilgan tahlillar boşlanğiç ta'lim mazmunini integratsiyalaş asosida taşkil etiş öquvçilarda meta-predmet kompetensiyalarini rivojlantirişning muhim pedagogik yönalişi ekanini körsatdi.

Birinçidan, meta-predmet kompetensiyalari öquvçining bilimlarni özlaştiriş, qayta işlaş va turli faoliyat vaziyatlarida qöllay oliş qobiliyati bilan belgilanadi.

Ikkinçidan, fanlararo integratsiya öquv materialining mazmuniy yaxlitligini ta'minlab, bilimlar örtasidagi uzviylikni kuçaytiradi.

Üçinçidan, muammoli ta'lim, loyiha metodi, integratsiyalaşgan topşiriqlar va refleksiv yondaşuv uşbu kompetensiyalarni rivojlantirişning samarali metodik vositalari hisoblanadi.

Törtinçidan, bu jarayonda öqituvçining darsni maqsadli loyihalaş va öquvçilarning mustaqil faoliyatini taşkil etiş mahorati hal qiluvçi ahamiyatga ega.

Beşinçidan, integratsiyani multifanli, fanlararo va transfanli darajalarda öquvçilarning yoş imkoniyatlariga mos ravişda bosqiçma-bosqiç murakkablaştirib boriş hamda meta-predmet natijalarini boşlanğiç, örta va yuqori darajalar böyiça kuzatiş uşbu jarayonning izçilligi va samaradorligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- boşlanğiç sinflar uçun taqvim-mavzu rejalarida integratsiyalaşgan mavzularni belgilab, ularning meta-predmet natijalarini aniq körsatiş;
- öqituvçilar uçun integratsiyalaşgan darsni loyihalaş va meta-predmet natijalarini baholaş böyiça malaka oşiriş modullarini joriy etiş;
- 2-jadvalda keltirilgan mezonlar asosida öquvçilarning rivojlaniş dinamikasini kuzatib boriş;
- refleksiv savollarni har bir darsning yakuniy bosqiçiga muntazam kiritiş.

Mazkur takliflarni amaliyotga tatbiq etiş öquvçilarning mustaqil fikrlaş, axborot bilan işlaş, muammolarni hal etiş, muloqot qiliş va öz faoliyatini baholaş kompetensiyalarini izçil rivojlantirişga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar röyxati:

1. Dewey, J. (1938). Experience and education. New York: Macmillan.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Bruner, J. S. (1960). The process of education. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Beane, J. A. (1997). Curriculum integration: Designing the core of democratic education. New York: Teachers College Press.
5. Jacobs, H. H. (Ed.). (1989). Interdisciplinary curriculum: Design and implementation. Alexandria, VA: ASCD.
6. OECD. (2019). OECD future of education and skills 2030: OECD learning compass 2030. Paris: OECD Publishing.
7. UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: A new social contract for education. Paris: UNESCO.
8. UNESCO. (2023). Global education monitoring report 2023: Technology in education - A tool on whose terms? Paris: UNESCO.
9. National Research Council. (2012). Education for life and work: Developing transferable knowledge and skills in the 21st century. Washington, DC: The National Academies Press.
10. Council of the European Union. (2018). Council recommendation of 22 May 2018 on key competences for lifelong learning (2018/C 189/01). Official Journal of the European Union, C 189, 1-13.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar böyiça)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport maşğulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqiçlari böyiça)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgaça ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGAÇA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Aşurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovçi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №11(3)

© Materiallar köçirib bosilganda "Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida körsatilişi şart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgaça va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan Özbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi böyiça röyxatdan ötkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toşkent şahar, Yunusobod tumani 19-mavze, 17-uy.